

## JADID MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

Temirova Mashhura Muhammadaminovna

Qo'qon universiteti dotsenti

Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi

Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 24

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.962>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/  
keywords

axloqiy qoida, tarbiya, Turkiy guliston yoxud axloq, fikr tarbiyasi, barkamol inson, pedagogika, insonparvarlik, xulq tarbiyasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik faoliyati va bugungi kundagi ta'limgiz tizimini rivojlantrishda ma'rifatchilik harakatlarning ahamiyati va pedagogik qarashlari hamda jadidlarda milliy g'oya va mafkura haqidagi masalalari chuqr tahlil etilgan. Shunidek, maqolada Turkiston ma'rifatparvarlarining pedagogik faoliyati va ularning bugungi ta'limgiz tizimiga chuqr ta'siri har tomonlama tahlil etilgan. Shuningdek biz tadqiqotga metodologik yondashgan holda manbalardan ham to'laqonli foydalandik. Shu sababli biz mazkur tadqiqotda jadidchilik harakatining muhim va asosiy bo'g'ini hisoblangan ma'rifatparvarlik faoliyatini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo'yilgan. Tadqiqot jarayonidagi o'rganilgan manbalar natijasida Turkiston jadidlarning pedagogik sohadagi harakatlari, ularni fanlarni o'qitish, o'quvchiga yetkazib berish borasidagi ilgari surgan g'oyalari har jihatdan fanlar meto'dikasiga mos kelishi ilmiy asoslandi. Xususan, yuqorida ilmiy asosga ega bo'lgan manbalarni o'ganish natijasida jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy me'rosi, pedagogik qarashlарини har qanday fanning meto'dikasiga bilan bog'lagan holda bugungi ta'limga joriy etish, va ta'limgiz samaradorligini oshirishga katta hizmat qilishi aniq misollar tarzida ilmiy yangilik sifatida yoritilgan. Shuningdek, olingan natijalar asosida ta'limgiz tizimini ham didaktik asoslarini yanada chuqurlashtirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kirish.** XXI asning ta'limgiz jarayonida pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'naviy ta'limgiz tivongchilarini faqat tayyor bilimlarni egallayishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Bugungi kunda respublikada ta'limgiz tizimidan andoza olish o'rqli ta'limgiz samaradorligiga erishish mumkin deb qaralmoqda. Aslida o'tmishimizga nazar solsak, jadid muttafakkirlarining pedagogik qarashlari, ularning ma'rifat- parvarlik faoliyatlari bugungi ta'limgiz sohasini chinakam yangicha isloh etish uchun muhim vazifasini bajara oladigan dasturilamal hisoblanadi. Prezidentimiz 2023 yil 22 dekabrda o'tkazilgan Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida jadid bobolarimizning milliy taraqqiyotini har tomonlama jadallashtirish, ziyozi va ijodkorlarni birlashtirishga daxldor tashabbuslari qatorida "Jadid" gazetasini ta'sis etish g'oyasini qo'llab-quvvatlash hamda ushbu nashriy yangi yilning kundida chop etish taklifini ilgari surdi<sup>1</sup>. Mazkur gazetani tashkil etishdan asosiy maqsad jadid marifatparvarlarining faoliyatini ilmiy asosda yanada chuqurroq tahlil etish va buni bugungi kundagi yosh avlodga ta'limgiz va tarbiya berishda unumli foydalanish ko'zda tutilgan. Bu esa mavzuni dolzarbligini yanada oshiradi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning bu rivojlanishi shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan ta'limgiz jarayonida tinglovchi asosiy o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda ham o'tgan asrimizda ham ta'limgiz jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilgan. Xususan, jadidlarimizning nuqtayi nazarida millatning yashamog'i, taraqqiy topmog'i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo'lmog'i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg'onishga e'tibor berishi turadi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'limgiz sohasida ta'kidlayotgan nuqtalari, qonun va qarorlari jamiyatining har bir bo'g'ini uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlarining biz yoshlarga goldirgan ulkan merosi bu ilk jadid maktablarini tashkil etib, o'zligimizni anglatgani, xalqimizni ma'rifati qilib uni jaholat va ilimsizlik botqog'idan asraganidir. Prezidentimiz aytganidek: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz me'rosini chuqr o'rganishimiz kerak. Bu ma'nnaviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu beboha boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"<sup>2</sup>.

**Adabiyotlar tahlili.** Jadidchilikning ruhi va mazmunini o'zida bekamu ko'st namoyon etgan jadid adabiyotlari milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos ro'l o'ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalari

badiiyatga ko'ra u qadar yuksak emas, ya'ni 1910 yillarning oxiri, 1920 yillarning boshidagina har jihatdan to'laqonli tadqiq etildi<sup>3</sup>. Darhaqiqat, zamonaviy adapbiyot milliy ongni shakllantirish va modernizm mohiyatini qamrab olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning ahamiyatini oshirib bo'lmaydi, chunki zamonaviy jamiyatning murakkabliklari va nozik tomonlarini aks ettiradi. Mavzuga oid tadqiqotlarni o'tkazgan J.A.Urumbaev va U.Aleuvlarning ilmiy ishlari hamda "Qoraqalpog'istonning yangi tarixi" kitobida jadid maktabi, jadidchilik harakati borasidagi ishlar haqida ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi. Jadidchilar haqida ko'plab maqolalar, tadqiqotlar va ilmiy ishlar e'lon qilindi. Xususan, E.Karimov, S.Kosimov, O.Sharafiddinov, Sh.Turdiev, X.Boltaboev, S.Xolboev, A. Nasriddinov, B.Ergashev, T.Berdiev, N. Karimov, B.Imomov, S.Axmedov, G.Ahmadjonov, Z.Eshmurodovalarning tadqiqotlarda jadidchilik harakatining ma'rifiy, siyosiy va dolzarb yo'nalishlari o'z aksini topa boshladi. Mazkur tadqiqotlarda jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlar sohasi faoliyatini turli bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davlar va hududlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqorida tadqiqotlarning barchasida jadidlarning pedagogik qarashlari yaxlit chuqr tarzda tahlil tarzda etilmagan. Shu sababdan ma'rifatparvarlarning muhim va yirik tarmog'i hisoblangan pedagogik qarashlari soha faoliyati yaxlit tarzda tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida jadidchilik yo'nalishida tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillardan oldingi davlarda Turkistonda jadid muttafakkirlarining pedagogik qarashlar mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adapbiyotlar, ilmiy tadqiqotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: jadid ma'rifatparvarlari o'z davri uchun va keyingi davr uchun ham dars usullari, ko'nikmalari, jadid maktablari va uni qanday tashkil etish borasida yetarlicha ma'lumot qoldirgan. Shu jumladan, Jadidlardan so'ng o'rganilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ularning ilmiy me'rosini o'rganib yosh avlodga batbiq etmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq"<sup>4</sup> asarida, zamonaviy pedagog yetishtrish, yangi darsliklarni yaratish va ta'limgiz uslublari, ko'nikmalari uchun yangi majmualar yaratish keng o'rinni olganligini ko'rishimiz mumkin. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlar mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adapbiyotlar, ilmiy tadqiqotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagi ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: jadid ma'rifatparvarlari o'z davri uchun va keyingi davr uchun ham dars usullari, ko'nikmalari, jadid maktablari va uni qanday tashkil etish borasida yetarlicha ma'lumot qoldirgan. Shu jumladan, Jadidlardan so'ng o'rganilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ularning ilmiy me'rosini o'rganib yosh avlodga batbiq etmoqda.

<sup>1</sup> <https://fledu.uz/uz/2024-yilning-ilq-kunida-jadid-gazetasi-chop-etildi/>

<sup>2</sup> "Tarjimon"g., 1906-yil, 69-son. –B.112.

<sup>3</sup> Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adapbiyoti,-2004,-T.,Ma'nnaviyat.183-bet.

pedagogik jihatdan inson ilmida so'zlashuv odobiga ham e'tibor berishadi. So'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berishib, so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazilatini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. Aql sohiblari kishilarni tilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar deyishgan. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo'lgan munosabatidir. Yana shuni aytish kerakki, har bir insonning, millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynayi hayoti til va adabiyotdir. Jadidlar milliy ta'limming zamini sifatida ona tili o'qitish masalasiga e'tiborni kuchaytirdilar, chunki milliy ruh, milliy ma'naviyatni "sut bilan kirgan" deganlaridek faqat ona tili orqaligina singdirish mumkin. Tadqiqotdan olingen aniq natijalar shuni ko'rsatadi, O'rta Osiyo jadidlarining pedagogik qarashlari ya'ni o'quvchilarga bilimlarni yetkazib berish borsidagi fikrlari bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan har bir jamiyatning ma'rifatchilik sohasi bo'yicha muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridaq fikrimiz dalili sifatida milliy g'oya, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan. Jadidlar millatning taraqqiyotining emas, yashash, hatto uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda ko'rdilar. "Milliyat fikriga, bu azim quvvatga xech bir kuch bas kela olmadni", - deb yozgan edi Yusuf Oqchur<sup>5</sup>.

**Muhokama.** Jadidlarmiz olyi o'quv yurtining zaruratini teran his qildilar va barcha imkoniyatlardan foydalanishiga urindilar. Ular so'nggi uch-to't asr davomida tushkun holga tushib tarixni unutayozgan millatimizga tarix shuurini singdirishga va u orqali yangi ruh baxsh etishga urindilar. Darhaqiqat, milliy shuurni tarix shuuri maydonga keltiradi. Tarix shuuri esa tarixni tanimoqdir<sup>6</sup>. Avloniy shaxs kamoloti va milliy o'zlikni anglashning tamal toshi sifatida ona tilini puxta egallash muhimligini ta'kidlaydi. Avloniy va boshqa zamonaviy ma'rifatparvarlarning fikricha, ona tilini ravon so'zlash insonning qadr-qimmati va qadr-qimmatini, milliy adabiy an'anani rivojlanirishga daxldorligini ko'rsatadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida o'zbek jamiyatining madaniy-intellektual manzarasini shakllantirishda zamonaviy pedagogik ta'limning hal qiluvchi roli ko'rsatilgan. Avloniy shaxs kamoloti va milliy o'zlikni anglashning tamal toshi sifatida ona tilini puxta egallash muhimligini ta'kidlaydi. Avloniy va boshqa zamonaviy ma'rifatparvarlarning fikricha, ona tilini ravon so'zlash insonning qadr-qimmati va qadr-qimmatini, milliy adabiy an'anani rivojlanirishga daxldorligini ko'rsatadi. Pedagogik nuqtai nazardan Avloniy insonparvarlik qadriyatlarining in'kosi sifatida nafosatlari so'zlashuv odoblarini tarbiyalashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, til shunchaki muloqot vositasi emas, balki insonning aql-zakovati, bilimi va axloqiy fazilatları o'chovidir. Avloniyning til va madaniyatga muhabbatga urg'u berishi til va milliy o'zlikni anglash o'rtasidagi chuqur bog'liqligini ta'kidlab, uni shaxs va jamaoa ongingin ajralmas jihatlari sifatida ko'rsatadi. Jadidlarning ona tilini milliy ta'limming asosi sifatida o'rgatish targ'iboti Avloniy qarashlari bilan hamohang bo'ladi, chunki ular milliy ma'naviyat va ma'naviyat go'daklikdan tilga chuqur singib ketgan, deb hisoblaganlar. Til va madaniy merosga bo'lgan bunday e'tibor zamonaviy mutafakkirlarning tilga milliy qadriyatlar va o'zlikni avlodlarga yetkazuvchi vosita sifatida qaragan fundamental pedagogik

#### Adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://fledu.uz/uz/2024-yilning-ilk-kunida-jadid-gazetasi-chop-etildi/>
1. "Tarjimon"g , 1906-yil, 69-son. –B .112.
2. Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,-2004,-T.;Ma'naviyat.183-bet.
3. "Tarjimon"g , 1906-yil, 69-son. –B .112.
4. Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,-2004,-T.;Ma'naviyat.105 -bet.
5. Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,-2004,-T.;Ma'naviyat.123-bet.

<sup>5</sup> Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,-2004,-T.;Ma'naviyat.105 -bet.

<sup>6</sup> Qosimov. B Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,-2004,-T.;Ma'naviyat.123-bet.

tamoyillarini aks ettiradi. Qolaversa, Avloniy va uning zamondoshlari tarixiy ongni milliy tiklanish uchun zarur deb bilishgan. Aholiga tarix tuyg'usini berish orqali ular yangilangan g'urur va maqsad tuyg'usini singdirishni maqsad qilganlar, shu bilan madaniy uyg'onish uchun zamin yaratdilar. Avloniyning milliy ong tarixni anglashdan kelib chiqadi, degan fikri jamoaviy o'zlikni shakllantirishda o'tmish, hozirgi va kelajakning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Avloniy ijodi va zamonaviy ma'rifatparvarlarning pedagogik qarashlari til, madaniyat va milliy o'zlikni anglash o'ttasidagi uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Ularning til bilimi, madaniy g'urur va tarixiy ongni rivojlanirishga qaratilgan sa'y-harakatlari o'zbek jamiyatida ijtimoiy va intellektual taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kengroq majburiyatni aks ettiradi.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillikning dastlabki yillarda jadidlar yo'nalishida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilingan va hozir ushu bo'nalishida davom etmoqda. Jadidlarning pedagogik qarashlari va sa'y-harakatlari hozirgi zamon jamiyat bilan hamohang bo'lib, zamonaviy dunyo murakkabliklari yo'liga qo'yishda ilhom va yo'l-yo'riq manbai bo'lib xizmat qiladi. Ularning tamoyillarini qabul qilish va ularni hozirgi sharoitlarga moslashtirish orgali biz ularning merosini qo'llab-quvvatlashda va ta'lim va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida davom etishimiz mumkin. Yangi ta'lim dasturlari va o'quv qo'llanmalarini yaratishda jadidlarning pedagogik qarashlari va metodikasini qo'llash zarur. O'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida jadid ma'rifatparvarlarning ilmiy me'rosini o'rganish va uni ta'lim jarayoniga qo'llashga yo'naltirilgan dasturlarni tatbiq etish. Jadidlarning didaktik qo'llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Jadidlar tomonidan qo'llanilgan interfaol va innovatsion ta'lim usullarini bugungi ta'lim jarayoniga keng joriy etish muhim. Yuqoridaq misollar jadid ma'rifatparvarlarning ilmiy merosi va pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy asoslab beradi. Bu yondashuv, shuningdek, ta'lim tizimining didaktik asoslarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Jadid mutafakkirlarining ilmiy merosini o'rganish imkoniyatlari ko'p bo'lishiga qaramay, bugungi kunda ularning jamiyatdagi ta'siri va nufuzi asta-sekin ortib bormoqda. Shuni bilar birga, bu ularning hissalarining ahamiyatini yoki pedagogik tushunchalarining dolzarbigini kamaytirmasligi kerak.

Ushbu mulohazalar asosida quyidagi takliflarni ko'rib chiqish zarur:

1. Merosni asrab-avaylash: Jadidlar merosini asrab-avaylash va targ'ib qilish, ularning o'gitlari va yutuqlarini unutmaslik, balki ta'lim-tarbiya taraqqiyotining poydevori sifatida nishonlanishini ta'minlashga harakat qilish kerak.

2. Qadriyatlar integratsiyasi: Jadidlar tomonidan ilgari surilgan axloqiy va axloqiy qadriyatlar ta'lim tizimiga singdirilishi, o'quvchilarda mehr-oqibat va ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini tarbiyalash zarur.

3. Usullarni modernizatsiya qilish: An'anaviy pedagogik tamoyillarga rioya qilgan holda, ta'lim usullarini hozirgi davrning o'zgaruvchan ehtiyojlari va muammolariga moslashtirish va modernizatsiya qilish zarurati mavjud.